

“Hududgazta’minot” aksiyadorlik jamiyati  
yagona aksiyadorining  
2021 yil 13 sentabrdagi 20-sonli qaroriga  
1-ILOVA

**“HUDUDGAZTA’MINOT”  
AKSIYADORLIK JAMIYATI  
USTAVI**

**(YANGI TAHRIRDA)**

Toshkent shahri – 2021 yil

## I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Ustav O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunlari va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda "Jamiyat" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4388-sonli "Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan tashkil etilgan.

1.3. Jamiyatning firma nomi:

1.3.1. O'zbek tilida:

to'liq nomi: "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyati.

qisqartirilgan nomi: "Hududgazta'minot" AJ.

1.3.2. Rus tilida:

to'liq nomi: Aksionernoye obshchestvo « Худудгазтаъминот ».

qisqartirilgan nomi: АО « Худудгазтаъминот »

1.3.3. Ingliz tilida:

to'liq nomi: Joint Stock Company "Hududgazta'minot".

qisqartirilgan nomi: JSC "Hududgazta'minot".

1.4. Jamiyatning pochta manzili va joylashgan joyi: 100115, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Muqimiy ko'chasi, 98.

1.5. Jamiyatning elektron pochta manzili: [info@hududgaz.uz](mailto:info@hududgaz.uz).

1.6. Jamiyatning rasmiy veb-sayti: [www.hududgaz.uz](http://www.hududgaz.uz).

1.7. Jamiyat boshqa davlatlar, xalqaro institutlar va tashkilotlar bilan gazta'minoti masalalari borasida qonunchilikda belgilangan tartibda xamkorlik qiladi.

1.8. Jamiyat o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlariga, umum majburiy tUSDagi me'yoriy hujjatlarga, shuningdek ushbu Ustavga amal qiladi.

1.9. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sUdda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

1.10. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

1.11. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

1.12. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

1.13. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

1.14. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

1.15. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

1.16. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 iyundagi PF-6010-sonli firmoniga asosan qo'shib olingan «Hududgaz Qoraqalpog'iston», «Hududgaz Andijon», «Hududgaz Buxoro», «Hududgaz Jizzax», «Hududgaz Qashqadaryo», «Hududgaz Navoiy», «Hududgaz Namangan», «Hududgaz Samarqand», «Hududgaz Surxondaryo», «Hududgaz Sirdaryo», «Hududgaz Toshkent», «Hududgaz Farg'ona», «Hududgaz Xorazm» va «Hududgaz Toshkent shahar» mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining topshirish dalolatnomasiga asosan barcha kreditorlar va qarzdorlariga nisbatan barcha majburiyatlari bo'yicha, shu jumladan taraflar baxslashayotgan majburiyatlar bo'yicha ham huquqiy voris hisoblanadi.

## **II. JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI, ASOSIY YO'NALISHLARI VA FUNKSIYALARI**

2.1. Jamiyat o'z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi va faoliyat sohasining asosiy maqsadi foyda olishdir.

2.2. Jamiyat faoliyatining maqsadlari:

- tabiiy gaz taqsimlash tarmoqlari va suyultirilgan gaz yetkazib berish infratuzilma ob'ektlari tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini hamda iste'molchilarga tabiiy va suyultirilgan gazni uzluksiz ravishda yetkazib berilishini ta'minlash ehtiyojlari qanoatlantirilishini ta'minlaydi;

- gaz ta'minoti tizimini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi;

- tabiiy gazni ushbu tabiiy gaz magistral gaz uzatish tizimi orqali yetkazib berilgan taqdirda - "O'ztransgaz" AJdan, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri gaz taqsimlash tarmoqlariga yetkazib berilgan taqdirda - tabiiy gaz ishlab chiqaruvchilardan oldi-sotdi shartnomalariga asosan sotib olish;

- tabiiy va suyultirilgan gazni yakuniy iste'molchilarga taqsimlovchi va sotuvchi hududiy gaz ta'minoti filiallarini boshqaradi;

- taqsimlovchi gaz tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, rivojlantirish tadbirlarini amalga oshiradi;

- gaz taqsimlash tarmoqlaridan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- gaz ta'minoti sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- iste'molchilarning gaz ta'minoti ob'ektlaridan foydalanishni tashkil etishi ustidan texnik va texnologik nazoratni amalga oshiradi;

- gaz taqsimlash tarmoqlari ob'ektlarida elektr energiyasi va yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

- gaz taqsimlash tarmoqlari ob'ektlarida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga doir ishlarni muvofiqlashtirilishini amalga oshiradi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### 2.3. Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va vazifalari quyidagilardan iborat:

- respublika iqtisodiyoti va aholisini tabiiy va suyultirilgan gaz bilan barqaror ta'minlash;
- gaz tarmoqlarini rivojlantirishning qisqa muddatli va uzoq muddatli istiqbollari hamda maqsadli dasturlarini ishlab chiqish;
- tabiiy va suyultirilgan gazni ishlab chiqarish va iste'mol qilish balanslarini shakllantirishda qatnashish;
- gaz taqsimlash tarmoqlarini zamonaviy asbob-uskunalar va ilg'or texnologiyalar asosida, shu jumladan xorijiy investitsiyalar hisobiga, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;
- tabiiy va suyultirilgan gazni uzatishda texnologik yo'qotishlarni (isroflarini) kamaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirilishini tashkil etish;
- gaz taqsimlash tarmoqlari ob'ektlarida ishlash va xizmat ko'rsatish uchun kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish marketing tadqiqotlarini tashkil etish;
- xorijiy korxonalar va jamiyatlar bilan iqtisodiy, texnikaviy, texnologik va investitsion hamkorlikni har tomonlama kengaytirish;
- respublika va dunyo bozori kon'yukturasini o'rganish negizida gaz taqsimlash tarmoqlari ob'ektlarini modernizatsiyasiga va kengaytirilishiga investitsiyalarni jalb etish;
- Jamiyat faoliyatida va tizimdagi korxonalarda yangi texnologiyalarni va menejmentning ilg'or usullarini joriy etish;
- boshqaruv tizimiga va gaz ta'minoti bo'yicha xo'jalik aloqalariga bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish;
- gaz taqsimlash tarmoqlari quvvatlarning o'zaro bog'langan va muvozanatlashtirilgan tarzda Jamiyatning rivojlanishi dasturlarini ishlab chiqish;
- Jamiyatga tegishli bo'lgan mulkni samarali boshqarishni ta'minlash.

### 2.4. Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun Jamiyat quyidagi funksiyalarni amalga oshirilishini ta'minlaydi:

- unga berilgan huquqlar chegarasida masalalarni kompleks hal qilish va tasarrufidagi korxonalarini boshqarish;
- gaz taqsimlash tarmoqlarini rivojlantirish konsepsiyasini va milliy dasturlarini ishlab chiqishda qatnashish;
- gaz taqsimlash tarmoqlari ob'ektlarida ekspluatatsiya faoliyatini, qurilish-montaj ishlarini, loyiha ishlari va tadqiqotlarni muvofiqlashtirish;
- gaz taqsimlash tarmoqlari ob'ektlarini qayta texnik jihozlash, qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, uskunalarni zamonaviylashtirish yo'li bilan asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilash;
- qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni almashtirish, sotib olish va sotish bo'yicha bitimlarni amalga oshirish;
- ishlab chiqarish, tijorat va ilmiy-texnik faoliyatiga mablag'larni investitsiyalash;
- bozor kon'yukturasini o'rganish va tahlil qilish, marketing va konsalting faoliyatini amalga oshirish;
- Jamiyat ijtimoiy rivojlanishi, mehnat jamoasining ijtimoiy qullab quvvatlash va ximoyasi bo'yicha strategiya va taktikasini shakllantirish;

- Jamiyatning ishlab chiqarish va xizmat xarajatlarini kamaytirish, moliya-xo'jalik faoliyati rentabelligini oshirish;
- tabiiy va suyultirilgan gazni yetkazib berish va sotishda zamonaviy hisoblash o'zaro hisob-kitob tizimlarini joriy etish;
- yangi ishlab chiqarish, tovar, injiniring, moliya-kredit tashkiliy tuzilmalarini va ularning birikmalarini shakllantirish;
- gaz taqsimlash tarmoqlari ob'ektlari uchun kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilish;
- gaz ta'minoti tizimi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va korxonalarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- Jamiyatning sho'ba va tobe korxonalarini barpo etish;
- Jamiyat vakolati boirasida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish.

2.5. Ko'rsatib o'tilganlar bilan bir qatorda Jamiyat quyidagilarni ham amalga oshirishi mumkin:

- yuridik va jismoniy shaxslarga konsalting, texnik xizmat ko'rsatish, axborot, lizing va marketing xizmatlarini ko'rsatish;
- franchayzing faoliyatini amalga oshirish;
- savdo ko'rgazmalari va yarmarkalarida qatnashish va ularni uyushtirish;
- "nou-xau" patentlarini va ratsionalizatorlik takliflarini sotib olish va sotishni amalga oshirish.

2.6. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirishga haqlidir. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishni talab qiladigan faoliyat turlari bilan Jamiyat shunday litsenziya olganidan keyin shug'ullanishi mumkin.

### **III. JAMIYATNING USTAV KAPITALI, UNI OSHIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI**

3.1. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

3.2. Jamiyatning Ustav kapitali 2 646 308 706 000,0 (ikki trillion olti yuz qirq olti milliard uch yuz sakkiz million yetti yuz olti ming) so'mni tashkil etib, nominal qiymati 100 so'm bo'lgan 26 463 087 060 dona oddiy aksiyalardan iborat.

#### **Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish**

3.3. Jamiyatning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

3.4. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan ushbu ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtirilishi mumkin.

3.5. Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari miqdori - nominal qiymati 100 (yuz) so'm bo'lgan 100 000 000 000 (yuz milliard) dona oddiy aksiyalardan iborat.

3.6. Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan Jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

3.7. Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan Jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning umumiy qiymati, soni, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

3.8. Jamiyatning ustav kapitali ko'paytirilayotganda jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

3.9. Jamiyatning aksiyalariga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish**

3.10. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

3.11. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

3.12. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

3.13. Jamiyat tomonidan qo'shimcha aksiyalar chiqarishda aksiyadorlar ustav kapitalidagi ulushlariga mutanosib ravishda aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqiga egalar.

3.14. Jamiyat aksiyadorlarning ularga tegishli ulushlari, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy maqomidan qat'iy nazar, barcha aksiyadorlarga teng munosabatni ta'minlaydi.

## **IV. JAMIYATNING KORPORATIV OBLIGASIYALARI VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI**

4.1. Jamiyat korporativ obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli.

4.2. Jamiyatning korporativ obligatsiyalari Jamiyat aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin.

4.3. Jamiyat mol-mulk bilan ta'minlangan korporativ obligatsiyalarni ularni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish sanasidagi o'z kapitali miqdori doirasida chiqarishga haqli.

4.4. Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

4.5. Jamiyat tomonidan Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda, mazkur qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi kerak.

## **V. JAMIYAT FOYDASINI (ZARARINI) TAQSIMLASH VA DIVIDEND HISOBLASH TARTIBI**

5.1. Amaldagi qonunchilikka asosan budjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan so'ng Jamiyat ixtiyorida qoladigan sof foyda, shuningdek o'tgan davrlardagi taqsimlanmagan sof foyda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan taqsimlanadi.

5.2. Jamiyat zararini qoplash aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori asosida zaxira fondi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

5.3. Dividend foydaning aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

5.4. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

5.5. Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

5.6. Aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida Jamiyat kuzatuv kengashi tavsiyasi asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

5.7. Dividendlar to'lash muddati va tartibi Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Dividendlar to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 kundan kech bo'lmasligi lozim.

5.8. Jamiyat:

- jamiyat ustav kapitalining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;
- agar dividendlar to'lanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;
- agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas.

Ushbu moddada ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, Jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

5.9. Jamiyat dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Jamiyat to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni Korporativ axborot yagona portalida va Jamiyatning rasmiy veb-saytida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

## **VI. JAMIYATNING ZAXIRA VA BOSHQA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH**

6.1. Jamiyat sof foydasi hisobidan:

- Jamiyat ustav kapitalining 15 (o'n besh) foizi miqdorida zaxira fondi;
- Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlarni tuzishga haqli.

6.2. Jamiyat zaxira fondiga ushbu Ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5 foiz miqdoridan kam bo'lmagan ajratmalar o'tkazadi.

6.3. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning zaxira fondi Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

6.4. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

## **VII. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI**

7.1. Jamiyatning boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- Kuzatuv kengashi;
- Ijroiya organi - boshqaruv.

### **Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi**

7.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

7.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- Jamiyat Kuzatuv kengashining soni va tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Kuzatuv kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiyalar to'lash;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- Jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish va jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartirishlarni jamiyat ustaviga kiritish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish;
- o'z aksiyalarini qayta sotib olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, Jamiyat ijroiya organining faoliyati tartibini belgilab beruvchi Nizomni tasdiqlash;
- Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;
- Jamiyatning boshqaruv organlari to'g'risidagi, shu jumladan ichki nazorat, dividend siyosati to'g'risidagi, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlash;
- jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;
- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan haq miqdori va chegarasini belgilash;
- har yili mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;



- Jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash, taftish komissiyasi a'zolariga mukofot va kompensatsiyalar to'lash to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

- Jamiyatning yillik hisobotini tasdiqlash;

- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

- homiylik (hayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish;

- elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferens-aloqa tarzida o'tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash);

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash;

- Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlarni ma'qullash;

- dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilish, aksiyalarning har bir toifasi va turi bo'yicha dividend miqdori, to'lov shakli va tartibini belgilash;

- homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qonunchilikda va mazkur Ustavda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

7.4. Agar qabul qilinishi lozim bo'lgan qaror bo'yicha qonunchilikka va ushbu Ustavga muvofiq Jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi yoki kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda ma'qullanishi lozim bo'lsa, bunday qarorlar Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan shunday tavsiyalar olingandan so'ng yoki dastlabki tarzda ma'qullanganidan so'ng qabul qilinadi.

7.5. Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan, har yili moliya yili tugagandan keyin olti oydan kechiktirmay, Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasini saylash to'g'risida, boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar, shuningdek Jamiyatning yillik hisoboti va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

7.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar jamiyatning ijroiya organi hal qilish uchun berilishi mumkin emas.

7.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

7.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkillashtirish va uning vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish, qonunchilik va Jamiyatning "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Jamiyat aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ijro etuvchi organ, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolari, shuningdek auditorlik tashkiloti vakilining ishtirokini ta'minlaydi.

7.9. Aksiyador vakili tomonidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etishi va kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish tartibi aksiyadorning o'zi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

### **Jamiyat kuzatuv kengashi**

7.10. Jamiyat kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, amaldagi qonunchilik va Jamiyat ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

7.11. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yillik muddatga saylanadilar. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining soni 7 (etti) kishidan iborat.

7.12. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash va o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish va yig'ilishda ishtirok etish uchun jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tadqiqlash;
- avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarishlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyat ijroiya organini tuzish, Boshqaruv raisi va a'zolarini lavozimga tayinlash, ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;
- Jamiyat ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- Jamiyat taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiya miqdori yuzasidan tavsiyalar berish;

- Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish (yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala kengashning qaroriga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilish uchun olib chiqilishi mumkin);

- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

- Jamiyatning filiallari, vakolatxonolari, sho''ba va tobe korxonalarini tashkil etish va tugatish;

- taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan taftish komissiyasining va ichki audit xizmatining xulosalarini eshitish;

- Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash, shuningdek, ko'rsatilgan to'lovlarning chegarasi miqdorini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207–sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida”gi qarori bilan belgilangan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlariga bog'lagan holda belgilash;

- Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan yillik biznes-rejasini tasdiqlash;

- Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

- Jamiyat korporativ konsultantini tayinlash va uning choraklik xisobotlarini eshitib borish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

7.13. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

7.14. Jamiyat kuzatuv kengashining majlislari Jamiyat kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, jamiyat kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi a'zosining, boshqaruv raisi va ichki audit xizmati boshlig'i talabiga ko'ra chaqiriladi.

Jamiyatning 1 foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari (agar mavjud bo'lsa) kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish hamda jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga (taftishchiligiga) bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega.

7.15. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kquorum Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining kamida 75 (yetmish besh) foizdan kam bo'lmasligi kerak.

7.16. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, mazkur ustavning 7.17.- bandida ko'rsatilgan masalalar bundan mustasno. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Jamiyat kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

7.17. Quyidagi masalalar bo'yicha qaror Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi:

- yirik bitim va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risidagi qarorlar;
- Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qarorlar qabul qilinganda.

7.18. Jamiyat kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Jamiyat Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishga yo'l qo'yilmaydi.

7.19. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda kuzatuv kengash tomonidan qaror qabul qilishda Jamiyat kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz huquqiga ega.

7.20. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirilmay tuziladi.

7.21. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- majlisda hozir bo'lgan shaxslar;
- majlisning kun tartibi;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- qabul qilingan qarorlar.

7.22. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etgan kuzatuv kengash a'zolari tomonidan imzolandi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

7.23. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi.

7.24. Agar, Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari qonunchilikka yoki Jamiyat ustaviga zid bo'lsa, bu qarorlar ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

7.25. Jamiyat kuzatuv kengashining faoliyat olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, ushbu Ustav va Jamiyatning ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

7.26. Jamiyat kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyat ijroiya organiga berilishi mumkin emas.

### **Jamiyatning ijroiya organi – Boshqaruv**

7.27. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik boshqaruv va uning raisi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

7.28. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari Boshqaruv a'zolari bo'la olmaydilar.

7.29. Jamiyat Boshqaruvi 5 a'zodan, shu jumladan rais, uning 3 o'rinbosari va bosh hisobchidan iborat bo'lib, ular lavozimlarga Jamiyat kuzatuv kengashi qarorlari bilan tasdiqlanadilar. Jamiyat Boshqaruvi a'zolarini tayinlash to'g'risidagi qaror, odatda, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi.

7.30. Jamiyatning Boshqaruvi a'zolari neft gaz sohasida, shu jumladan gaz tarmoqlari tizimini boshqarish sohasida malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

7.31. Boshqaruv ishiga rahbarlikni Boshqaruv raisi amalga oshiradi va o'z vakolatlari doirasida jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish ko'rishga haqlidir.

7.32. Boshqaruv raisi vazifasidan ozod etilgan taqdirda yoki ishda bo'lmagan davrda yangi boshqaruv raisi tayinlangunga qadar uning vazifasini o'rinbosarlaridan biri amalga oshiradi.

7.33. Boshqaruv raisining o'rinbosarlari o'z vakolatlari doirasida ishonchnoma asosida jamiyat nomidan ish ko'rishga haqlidirlar.

7.34. Jamiyat Boshqaruvining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat aksiyadolari umumiy yig'ilishining va kuzatuv kengashining vakolatiga kiruvchi masalalardan tashqari, jamiyat faoliyatining barcha masalalarini hal qilish;

- Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitimlar bo'yicha qaror qabul qilish, agar boshqa shaxsga berilayotgan yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotganda jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 foizigachasini tashkil etsa, aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan xodimlarning cheklangan soni doirasida ijro apparatining tuzilmasini tasdiqlash;

- sho'ba korxonalarining (filiallarining) tashkiliy tuzilmasini va xodimlarining me'yoriy sonini tasdiqlash;

- jamiyat xodimlarining mehnat haqini O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, mehnat haqi to'lashga tegishli qonunchilik va me'yoriy hujjatlar, jamoa shartnomasi (bitimi) va jamiyatda amal qiluvchi boshqa hujjatlarga hamda xodim va ish beruvchi orasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, soha tarif setkasi asosida belgilash.

7.35. Jamiyat Boshqaruvi raisi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- jamiyat aksiyadolari umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini tashkil etish.

- mazkur Ustav va jamiyatning Ijroiya organi to'g'risidagi nizomiga asosan unga berilgan vakolatlar doirasida Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;

- ishchi va xodimlarga ish haqi va mukofotlar miqdorini belgilash;

- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;

- Jamiyat nomidan kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar tuzish;

- Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash va lavozimidan ozod qilish;

- xodimlar shtatlarini tasdiqlash, xodimlarni (ishchilarni) ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomiga rioya qilinishini ta'minlash;

- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;

- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;

- Jamiyatda buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish, shu jumladan e'lon qilish maqsadida Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga transformatsiyasini ta'minlash;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyat faoliyatiga doir ma'lumotlarni oshkor qilish;
- yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida takdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;
- Jamiyat arxivi ishini tashkil etish va undagi hujjatlar butligini ta'minlash;
- amaldagi qonun hujjatlariga hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish.

7.36. Boshqaruv kamida bir oyda bir marta yig'iladi. Boshqaruv majlisida Boshqaruv a'zolarining kamida 60 (oltmish) foizi qatnashganda, Boshqaruv majlisi vakolatli hisoblanadi. Boshqaruv majlisida bayonnoma yuritiladi, u Boshqaruv raisi tomonidan, rais uzurli sabablarga ko'ra ishtirok etmagan taqdirda majlisga raislik qilgan shaxs tomonidan imzolaniadi.

7.37. Boshqaruv o'z a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda raisning ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.

7.38. Boshqaruv Jamiyatga nisbatan qonunchilik va ushbu ustav tomonidan, shuningdek Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan o'rnatilgan barcha talablarga rioya qilishi shart.

7.39. Boshqaruv raisi va a'zolarini lavozimlaridan ozod qilish Jamiyat kuzatuv kengashi qarori va (yoki) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari bilan amalga oshiriladi.

7.40. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, jamiyat boshqaruv raisi yoki boshqaruv a'zolari, shuningdek ishonchli boshqaruvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

7.41. Agar boshqaruvning bir necha a'zolari javobgar deb topilsa, ular jamiyat oldida solidar javobgar bo'ladi.

7.42. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

7.43. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, boshqaruv a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

7.44. Sud jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosini, boshqaruv a'zosini jamiyatga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a'zoning, boshqaruv raisi yoki boshqaruv a'zosining vakolatlari sudning qaroriga ko'ra, ularning xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashi taqiqlangan holda, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tugatilishi mumkin.

7.45. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, boshqaruv raisi yoki boshqaruv a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi jamiyatga chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganligi yoxud o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida yirik bitim tuzishni va (yoki) yirik bitim tuzish va (yoki) affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilishni taklif etganligi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

## **VIII. JAMIYATNING MINORITAR AKSIYADORLARI QO'MITASI**

8.1. Minoritar aksiyadorlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Jamiyatda ularning orasidan 3 (uch) nafargacha a'zoldan iborat minoritar

aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi, ushbu qo'mita faoliyatini ta'minlash xarajati jamiyat mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar Jamiyatga Jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylashda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan va Jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiy yig'ilishida Jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga Boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari, shuningdek jamiyatning kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga (taftishchisiga) saylangan shaxslar kiritish mumkin emas.

8.2. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Jamiyat kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;

qonun hujjatlariga va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni qo'rib chiqish.

## **IX. JAMIYATNING YILLIK HISOBOTINI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH TARTIBI. MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH VA SAQLASH**

9.1. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobotini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

9.2. Jamiyatda buxgalteriya hisobotining tashkil etilishi, holati va ishonchliligini, tegishli organlarga har yili hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek jamiyatning korporativ veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Jamiyat boshqaruvining zammassida bo'ladi.

9.3. Jamiyatning moliyaviy hisobotida ko'rsatilgan va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobraqamidagi ma'lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

9.4. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida o'n kun oldin Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

9.5. Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi har yilning 29 iyun sanasida o'tkaziladi.

9.6. Jamiyat:

Jamiyat ustavini, ustavga kiritilgan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni, jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi qarorni, jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani;

Jamiyatning o'z balansidagi mol-mulkka bo'lgan huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarni;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Jamiyatning boshqa boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlarni;

Jamiyatning filiallari yoki quyi tashkilotlari nizomini;

Jamiyatning yillik hisobotini;

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorlarni;

Aksiyalar emissiya risolasini;

Buxgalteriya hisobiga doir hujjatlarni;

Tegishli organlarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarni;

Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishlarining, Jamiyat kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (taftishchi) va boshqaruvi majlislarining bayonnomalarini, shuningdek Jamiyat Boshqaruv raisining buyruqlarini;

Jamiyatning affillangan shaxslar ro'yxatlarini;

Jamiyat aksiyadorlarining reyesterlarini;

Jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining), auditorlik tashkilotining xulosalari va hisobotlarini, nazorat qiluvchi davlat organlarining tekshiruvlari dalolatnimalarini saqlashi shart.

Jamiyat qonun hujjatlariga va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa hujjatlarni ham saqlashi shart.

9.7. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda o'zi to'g'risidagi axborotni oshkor qiladi.

Korporativ axborot yagona portalida Jamiyat ustavining matni, shu jumladan unga doir o'zgartirish va qo'shimchalar, shuningdek oshkor etilishi majburiy bo'lgan boshqa axborotlar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda e'lon qilinadi.

## **X. JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH**

### **Taftish komissiyasi**

10.1. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi taftish komissiyasini bir yil muddatga saylaydi. Jamiyat taftish komissiyasi 3 (uch) kishidan iborat bo'ladi.

10.2. Jamiyat taftish komissiyasi a'zolariga doir malaka talablari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Ayni bir shaxs Jamiyatning taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

10.3. Taftish komissiyasi amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishga haqli.

10.4. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, jamiyat kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi;



10.5. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra jamiyatning taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:

10.6. Jamiyatning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga baho beradi;

10.7. buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborotni ko'rsatadi;

10.8. Jamiyatda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va Jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

10.9. Jamiyat taftish komissiyasining yozma talabiga ko'ra, Jamiyat ijroiya organida mansabni egallab turgan shaxslar Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etishi shart.

10.10. Jamiyat taftish komissiyasi faoliyatining tartibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan "Jamiyat taftish komissiyasi to'g'risida"gi Nizomda belgilab qo'yiladi.

### **Ichki audit xizmati**

10.11. Jamiyat ichki audit xizmati jamiyat Kuzatuv kengashiga hisobdordir.

10.12. Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

Shuningdek, Ichki audit xizmati jamiyatdagi ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

10.13. Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Jamiyat Kuzatuv kengashini ishonchli axborot bilan ta'minlash va ichki audit amalga oshirilishi natijalari bo'yicha jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash;

ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan jamiyat boshqaruv organiga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish.

10.14. Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

- har yili Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo'yicha);

- tuziladigan xo'jalik shartnomalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o'tkazish;

- buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda korxonaning tarkibiy bo'linmalariga metodik yordam berish, ularga moliya, soliq, bank qonunlari va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

- texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholashda hamda auditorlik tekshirishlarini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalarni tayyorlashda jamiyatning kuzatuvchi kuzatuv kengashiga ko'maklashish.

10.15. Jamiyatning ichki audit xizmati:

- tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini;
- korporativ boshqarish prinsiplariga rioya qilinishini;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini;
- moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini;
- aktivlarning holatini;
- ichki nazoratning holatini tekshiradi va ularning monitoringini olib boradi.

10.16. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga hamda Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan nizomga muvofiq amalga oshiradi.

### **Auditorlik tashkiloti**

10.17. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun tanlov asosida auditorlik tashkiloti jalb etiladi.

10.18. Auditorlik tashkiloti jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va auditorlik xulosasini taqdim etadi.

10.19. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va jamiyat faoliyati bilan bog'liq boshqa axborotlar haqida noto'g'ri xulosasi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

## **XI. JAMIYAT FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH TARTIBI**

11.1. Jamiyat faoliyatini tugatish sud qarori yoki aksiyadorlar uUmumiy yig'ilish qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

11.2. Jamiyat faoliyatini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng aksiyadorlar umumiy yig'ilish tugatish komissiyasini tayinlaydi.

11.3. Jamiyat faoliyatini qayta tashkil qilish O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunlari talablari asosida amalga oshiriladi.

## **XII. YAKUNIY QOIDALAR**

12.1. Jamiyat Boshqaruvi o'z vakolatlari doirasida mazkur ustavga kiritiladigan barcha o'zgartirish, qo'shimchalarni yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat organida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazadi.

12.2. Jamiyat ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, qonunchilikda belgilangan hollarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

12.3. Agar mazkur ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

12.4. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik xujjatlarida mazkur ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

12.5. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

12.6. Mazkur Ustav qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

**Boshqaruv raisi**

**B. Eshmuratov**